

ALISHER NAVOIY RUBOIYLARINI MAKTABDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'RGATISH

Urganch davlat universiteti o'zbek adabiyoti 1-bosqich magistranti

Hamrayeva Matluba

Kalit so'zlar: ruboiy, g'oya, venn diagramma,

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darsligida berilgan Alisher navoiy ruboiylari tahlil qilinadi.

An'anaviy o'qitish metodikasida o'quv materiallari matn va formulalar ko'rinishida berilib, uni namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas. Bunday ko'rinishda berilayotgan o'quv materiallarini o'zlashtirish asosan o'quvchi tomonidan ketma-ket ravishda qabul qilinadi, shu sababli ularni esda qoldirish va o'zlashtirish jarayoni sust kechadi. O'quv materiallarini obrazli ko'rinishda taqdim etishda esa har xil ko'rinishdagi ranglar, harakat, ovoz kabi vositalar o'quvchilarning o'quv materiallarini qabul qilish qobiliyatini oshirishi bilan birga ularning berilayotgan materiallarini tahlil qilish, taqqoslash hamda abstraktsiyalash kabi muhim sifatlarini rivojlantiradi. Mumtoz adabiyotni o'quvchilarga o'rgatishda turli ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida barcha sinf darsliklarida berilgan. O'quvchilarni ma'lumotlarni esda saqlashlari, farqlashlari uchun darslikda berilgan ma'lumotlar, asarlaridan namunalarni turli metodlar yordamida o'rgatish muhim ahamiyatlidir. Ruboiy - Sharq she'riyatining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, bu janrning yuzaga kelishi xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liqdir. Bu shakl o'z nomlanishini arablardan olgan bo'lsa ham (ruboiy - arabcha to'rtlik demakdir), forstojik va o'zbek adabiyotida uning yuzaga kelishi milliy adabiy an'analar bilan mustahkam bog'langan. Fors-tojik yozma adabiyotida ruboiyning

dastlabki namunalari Rudakiy va Shahidi Balxiylar qalamiga mansub bo'lsa, o'zbek yozma, adabiyotida haqiqiy ruboiyning bir necha namunasi Lutfiy devonida uchraydi.

Alisher Navoiy ruboiynavislikda ikki asosga – o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti va turkiy tildagi yozma adabiyot tajribalari hamda fors-tojik ruboiynavislarining boy tajribalariga suyandi, o'zbek tilida klassik ruboiylarning rang-barang namunalarini yaratdi. Navoiy juda ko'plab ruboiylar yaratgan bo'lib, ulardan 133 tasi "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kirgan. Devondan o'rin olgan ruboiylar falsafiy, ijtimoiy, axloqiy-ta'limiy, ishqiy mavzularda bitilgan. Darslarda ruboiylarni tahlil qilishda quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin.

1. Ruboiy ifodali o'qish
2. Ruboiylarning asosiy g'oyasini aniqlash
3. Asosiy g'oya ifodalaydigan kalit so'zlarni topish
4. Ruboiylardagi qofiyadosh so'zlarni aniqlash
5. Ruboiy vaznini aniqlash

Venn diagrammasi - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ko'nglungni orit barcha yomon xislatdin,
Kim, yaxshi qiliq dalil erur, rahmatdin.
Badxo'ylik ul vahshat erur shiddatdin
Kim, elga xaloslik yo'q vahshatdin.
Xub el bila suhbat tutubon xub o'lgil,
Yaxshini talab qilg'il-u matlub o'lg'il.
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il
Yumshoq de hadisingni-yu, mahbub o'lg'il.



Ikki ruboiyda o‘zaro o‘xshashlikni, farqli jihatni venn diagrammasi yordamida tahlil qilish mumkin. Doiralar ichini yana davom qildirish mumkin. Ruboiylarda berilgan notanish so‘zlarni topish, ruboiy orqali ifodalanayotgan mazmuni ochib beradigan so‘zlarni topish, ruboiy mazmuniga mos keladigan maqollarni, hikmatli so‘zlarning mosini topish orqali ham ruboiyni ma’no va mazmun jihatdan tahlil qilishga o‘quvchilarni undaymiz. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mumtoz adabiyotimiz va Alisher Navoiy ijodi o‘quvchilarni chuqurroq o‘ylashga, badiiy tafakkur olamini boyitishga undaydigan tunganmas manbadir. Navoiyning kichik janrdagi she’rlarini o‘rganish o‘ziga xos bo‘lib, bu o‘qituvchidan katta nazariy bilim va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Shoir ijodini o‘rgatishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni adabiyotga yanada qiziqishlarida turtki bo‘ladi.

Foydalanganilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
2. Adabiyot 6-sinf darsligi, Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Respublika ta’lim nazariyasi. Toshken-2022
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.